



TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

O'RTA MAXSUS, KASBIY, OLIY HAMDA OLIJ TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM SOHASI

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“O’rta maxsus, kasbiy, oliy hamda oliy ta’limdan keyingi ta’lim sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-002



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va Mashg'ulotlar milliy klassifikatoriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, o'rta maxsus, kasbiy, oliy hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasi tarmog'i bo'yicha malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), malaka va amaliy tajriba (shaxsiy va kasbiy kompetensiya)lar xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi o'rta maxsus, kasbiy, oliy hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasi tarmog'ida malaka darajalarining yagona darajasini belgilaydi.

Tarmoq malaka ramkasi malakalarning qiyoslanishini, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

O'rta maxsus, kasbiy, oliy hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasidagi tarmoq malaka ramkasi Milliy malaka tizimining tarkibiy elementi bo'lib, Milliy malaka ramkasining ta'limga tegishli darajalarini qamrab oladi.

Tarmoq malaka ramkasi:

ta'lim sohasidagi ish beruvchilar va xodimlarga, ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarga, shuningdek, bo'lajak kasb egalari hamda mutaxassislarga mehnat faoliyatini amalga oshirishda samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish imkoniyatini berish;

pedagog xodimlar kasbiy standartidagi malaka darajalari (kichik daraja) tavsiflarini belgilash;

pedagogika sohasi ta'lim dastur (modul)larini ishlab chiqishda mehnat bozori talablari va shakllanadigan kasbiy kompetensiyalarni inobatga olish;

tashqi ekspertlar, pedagogik ta'lim sifatini ta'minlovchi ta'lim tashkilotlariga, mustaqil sertifikatlash agentlik (markaz)lariga pedagogik malakalarning standartlari, vositalari, baholash va tan olish tartibini ishlab chiqishda yordam berish;

pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilarning raqobatbardoshligi, akademik va kasbiy mobilligini ta'minlash maqsadida, pedagogik malakalarni mehnat bozori va xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu TMRda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek, nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta'lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir)) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta’sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta’lim – ta’lim xizmatlari taqdim etilishini ta’minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo’naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o’qitishdagi rasmiy ta’limga qo’shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pedagog – (yunon tilidan – παιδαγωγός bola yetaklovchi) – pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o’qitish bilan shug’ullanuvchi, shu soha bo’yicha maxsus tayyorgarlikga ega bo’lgan shaxs;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o’rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

TMRni ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ—huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risida 2020-yil 29-sentabrdagi O‘RQ—637-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-avgustdagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5712-son farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4708-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4963-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo’lga qo’yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy choratadbirlar to’g’risida”gi PF-14-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022/2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-sonli farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-128-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-oktabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 11-oktabrdagi PQ-300-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-53-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-avgustdagi "Davlat oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini tasdiqlash to'g'risida"gi F-43-son farmoyishi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 164-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro kelishuvi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari asosida talabalarni o'qitishni tashkil etish to'g'risida"gi 421-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025/2026 - o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich dual ta'lim asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, shu jumladan, "Kasb egasi" dual ta'lim tizimini tashkil etish to'g'risida"gi 14-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mehnat vazirligi, Moliya vazirligining 2017-yil 6-fevraldagi "Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qo'shma qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2859);

O'zbekiston Respublikasi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 30-maydagi 7q/q-son, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 20-maydagi 72024/QQ-son hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 124-sonli qarori" (ro'yxat raqami 31193, 01.07.2024-y.) tahririda ko'rsatilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining "Akademik litsey, kasb hunar maktabi, kollej va texnikumlar boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini tasdiqlash to'g'risida" qo'shma qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 25-martda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3119-4);

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining 2024-yil 9-iyuldagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida "Registrator ofisi"ni tashkil etish to'g'risida"gi 24-q/q, 2-q/q-sonli qo'shma qarori.

Asosiy qisqartmalar:

TMR — Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

MMK— Mashg'ulotlar milliy klassifikatori.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

O'rta maxsus, kasbiy, oliy hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohalari — bu ta'lim uzluksiz ta'limning mustaqil turidir. O'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limi yo'nalishi — akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji talabalar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi. Oliy ta'limning maqsadi — oliy ma'lumotga ega, tanlangan soha (mutaxassislik) bo'yicha mustaqil faoliyat yurita oladigan, respublikaning ilmiy, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shishga qodir, yuksak ma'naviy, madaniy va axloqiy fazilatlariga ega hamda zamonaviy talablarga javob beradigan malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat.

O'rta maxsus, kasbiy, oliy hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasidagi TMR quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi:

Q — Ta'lim.

O'zbekiston Respublikasida O'rta maxsus, kasbiy, oliy hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT—2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	Q seksiya – Ta'lim	85 Ta'lim	85.3 O'rta va o'rta ta'limdan keyingi ta'lim	85.31 Umumiy o'rta ta'lim	85.31.0 Umumiy o'rta ta'lim
2				85.32 Professional o'rta ta'lim	85.32.0 Professional o'rta ta'lim

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
3				85.33 O'rta ta'limdan keyingi ta'lim	85.33.0 O'rta ta'limdan keyingi ta'lim
4			85.4 Oliy ta'lim	85.40 Oliy ta'lim	85.40.0 Oliy ta'lim
5			85.5 Ta'limning boshqa turlari	85.51 Sport ta'limi, jumladan ko'ngil ochish maqsadidagi ta'lim	85.51.0 Sport ta'limi, jumladan ko'ngil ochish maqsadidagi ta'lim
6				85.52 Madaniyat sohasidagi ta'lim	85.52.0 Madaniyat sohasidagi ta'lim
7				85.53 Transport vositalari haydovchilarini tayyorlash maktablari faoliyati	85.53.0 Transport vositalari haydovchilarini tayyorlash maktablari faoliyati
8				85.59 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'limning boshqa turlari	85.59.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'limning boshqa turlari
9			85.6 Ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat	85.61 Kurslar va repetitorlar uchun vositachilik xizmati faoliyati	85.61.0 Kurslar va repetitorlar uchun vositachilik xizmati faoliyati
10				85.69 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat	85.69.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
2	13450	Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi bo'linmalar rahbarlari
	23100	Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilari
3	23201	Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari
4	23202	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida kasb ta'limi ustalari
5	23203	O'rta-maxsus ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari
6	23510	Ta'lim uslubiyoti bo'yicha professional-mutaxassislar
7	23591	Qisqa muddatli tayyorgarlik (treninglar), qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha professional-mutaxassislar
8	23592	Kasbga yo'naltirish bo'yicha professional-mutaxassislar
9	23599	Ta'limning boshqa boshlang'ich guruhiga kiritilmagan professional-mutaxassislar

3. Tarmoq tahlili

Joriy yilda ta'lim resurslarini samarali birlashtirish, takror yo'nalishlarni qisqartirish, professor-o'qituvchilar salohiyatidan oqilona foydalanish hamda hududlarda mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hududiy va kadrlar tayyorlash ixtisoslashuvi jihatidan yaqin bo'lgan 29 ta oliy ta'lim tashkiloti negizida 12 ta yangi oliy ta'lim tashkilotining tashkil etildi. Hozirda respublikamizda 207 oliy ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Ulardan 32 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi yoki ularning filiallari, 74 tasi nodavlat oliygohlari va 101 ta davlat oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi keng ko'lamli va mazmunan chuqur islohotlar bosqichiga kirdi.

Oliy ta'lim bilan qamrov darajasi mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Bugungi kunda oliygohlarda tahsil olayotgan talabalar soni 1 million 700 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu – 2017-yilga nisbatan 6 barobar ko'p demakdir. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 44 foizni tashkil etdi.

2025-yilda zamonaviy ta'lim shakllarini joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. Masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari soni 21 tadan 52 taga oshirildi. 2025/2026 o'quv yilidan boshlab magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kechki va masofaviy ta'lim shakllarida ham kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi tasdiqlandi.

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil davom ettirildi. Oila va xotin-qizlar qo'mitasining tavsiyanomasini olgan, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul parametrlariga qo'shimcha ajratiladigan 2 000 ta davlat granti 2025/2026 o'quv yili uchun 2 barobarga oshirilib, 4 000 ta etib tasdiqlandi.

Mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar uchun to'lov-kontrakt asosidagi 500 ta qabul parametrlari 5 barobarga oshirilib, 2025/2026 o'quv yili uchun 2 500 ta etib belgilandi.

Shu bilan birga, davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan 11 161 nafar xotin-qizning o'qish xarajatlari uchun jami 122,7 milliard so'm mablag' to'lab berildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash ham doimiy e'tibor markazida bo'ldi. 2025/2026 o'quv yili uchun "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oilalar farzandlari uchun 10 foizli qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga 3 550 ta ta'lim granti kvotasi tasdiqlandi.

Shuningdek, 2025/2026 o'quv yilidan boshlab abituriyentlarga 5 ta ta'lim yo'nalishiga qo'shimcha ravishda 6-ta'lim yo'nalishini tanlash imkoniyati yaratildi.

Xalqaro va nodavlat oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik kengaytirildi. Respublikada faoliyat olib borayotgan 32 ta xorijiy oliy ta'lim tashkiloti filiallari hamda 74 ta nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari uchun 1 320 ta davlat granti kvotasi ajratildi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim grantlarini tabaqalashtirilgan tartibda qayta taqsimlash amaliyoti joriy etildi.

Xalqaro ta'lim sifati mezonlarini joriy etish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. TOP–500 talikka kirgan 9 ta xorijiy oliygoh bilan kelishuvlarga erishilib, ular bilan hamkorlikda 17 ta qo'shma ta'lim dasturining qabul kvotalari tasdiqlandi. 11 ta oliygohdagi 40 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi.

TOP–300 talikka kirgan xorijiy oliygozlarning ta'lim dasturlari asosida davlat oliy ta'lim tashkilotlaridagi yuqori kurslarning 4 mingga ortiq o'quv dasturlari takomillashtirildi. Natijada, oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni 20 mingga nafarga yetdi.

Professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. 6 139 nafar professor-o'qituvchi xorijda malaka oshirdi, 3 859 nafar xorijiy professor-o'qituvchi esa o'quv jarayoniga jalb etildi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida 307 nafar professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlar hamda 120 nafardan ortiq talabalar ishtirokida respublikadagi 7 ta energiya resurslarini iqtisod qilish masalasini ilmiy asosda o'rganish ishlari amalga oshirildi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka yo'naltirish borasida ham muhim qadamlar qo'yildi. Respublikadagi 14 ta hududning 80 ta oliygohida "O'zmilliybank" AJning "Kelajakka qadam" markazi filiallari tashkil etildi. Ushbu markazlar orqali 4 529 nafar bitiruvchi talabaning biznes loyihalari 202,1 milliard so'm miqdorida imtiyozli shartlarda moliyalashtirildi.

Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan talabalar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti tanlovi o'tkazilib, 23 nafar talabaga mazkur grant taqdim etildi.

Talabalarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida oliy ta'lim tashkilotlaridagi "Registrator ofis"lari tomonidan 6 ta yo'nalishda jami 737 066 ta xizmat ko'rsatildi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida hamda oliygozlar mablag'lari hisobidan 20 ta oliy ta'lim tashkilotida 12 084 o'rinli 22 ta talabalar turar joyi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Shunday qilib, 2025-yil davomida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar sohada sifat o'zgarishlarini ta'minlash, ta'limga teng va adolatli imkoniyatlar yaratish, xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash hamda yoshlarning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qildi. Erishilgan natijalar mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini yanada modernizatsiya qilish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun mustahkam intellektual poydevor yaratishga qaratilgan islohotlar izchil va barqaror davom ettirilishini yaqqol tasdiqlaydi.

Xalqaro reyting faoliyati bo'yicha Buyuk Britaniyaning nufuzli "Quacquarelli Symonds" xalqaro reyting agentligining "QS World University Rankings – 2025" TOP – 1000 oliygozlari ro'yxatidan ilk bor respublikamizning ikki oliy ta'lim muassasasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash

muhandislari” milliy tadqiqot universiteti – 547 o‘rin, O‘zbekiston Milliy universiteti – 781 - 790 o‘rinni egalladi.

Shuningdek, ushbu reyting tashkilotining yana bir nufuzli reytingi “Osiyo universitetlar reytingi” QS “Asia University Rankings 2024”da ham 2023-yilda respublikaning 14 ta oliy ta’lim muassasasi joy olib, eng yuqori 249 o‘rinni egallagan bo‘lsa 2024-yil QS “Asia University Rankings 2025”da O‘zbekistonning 23 ta oliy ta’lim muassasasi Osiyo TOP—1000 universitetlar ro‘yxatidan joy olib, eng yuqori 159 o‘ringacha ko‘tarildi:

QS Asia University Rankings — 2025		
Reytingdagi o‘rni		Oliy ta’lim tashkiloti nomi
2025-yil	2024-yil	
159	249	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
242	301—350	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
357	401—450	Toshkent davlat iqtisodiyot universitet
362	501—550	Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
491—500	601—650	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
541—560	651—700	Muhammad al—Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
581—600	701—750	Toshkent moliya instituti
621—640	801	Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat universiteti
641—660	651—700	Toshkent davlat agrar universiteti
661—680	751—800	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
661—680		Urganch davlat universiteti
701—750	801	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
751—800		Guliston davlat universiteti
751—800	751—800	Namangan muhandislik texnologiya instituti
751—800		Toshkent davlat transport universiteti
801—850		Andijon davlat universiteti
801—850		Farg‘ona davlat universiteti
801—850	801	Farg‘ona politexnika instituti
801—850		Qarshi davlat universiteti
851—900		Buxoro davlat universiteti
851—900		Chirchiq davlat pedagogika universiteti
851—900	751—800	Jizzax politexnika instituti
901		Buxoro muhandislik texnologiya instituti

Buyuk Britaniyaning nufuzli “Times Higher Education” xalqaro reyting tashkiloti 2025-yilgi “World University Rankings” ro‘yxatini e‘lon qildi. Quvonarlisi, ilk bor O‘zbekistonning uchta oliy ta‘lim muassasasi ushbu reytingning TOP—1000 taligidan joy oldi:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti — 601—800 - o‘rin;

O‘zbekiston Milliy universiteti — 1001—1200 - o‘rin;

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti — 1501 - o‘rin.

2024-yil 12-iyun holatiga ko‘ra, Buyuk Britaniyaning nufuzli reyting tashkiloti – “Times Higher Education” tomonidan e‘lon qilingan “THE Impact Rankings” reytingida O‘zbekiston Respublikasining 53 ta oliy ta‘lim muassasalari qayd etildi. Jumladan, mazkur ro‘yxatda respublikamizning 7 ta oliy ta‘lim muassasasi TOP—1000 oliygohlar ro‘yxatidan o‘rin egalladi.

T/r	Oliy ta‘lim tashkiloti nomi	Reytingdagi o‘rni
1	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti	301—400
2	Toshkent davlat yuridik universiteti	401—600
3	O‘zbekiston milliy universiteti	601—800
4	“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti	601—800
5	Toshkent davlat texnika universiteti	801—1000
6	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	801—1000
7	Samarqand davlat universiteti	801—1000

Reytingda “TIQXMMITI” Milliy tadqiqot universiteti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “TOP—500” universitetlar qatoriga kirdi.

QS reyting tashkiloti bilan yaqindan olib borilayotgan tizimli chora tadbirlar natijasida 2023-yilda rivojlanayotgan “Fan sohalari reytingi”da (“Subject Rankings”), respublikamizning 2 ta oliy ta‘lim muassasasi 4 ta fan sohalari bo‘yicha “TOP—500” universitetlar qatoridan o‘rin egalladi.

T/r	Oliy ta‘lim muassasasining nomi	Fan sohasi (“Subject”)	Reytingdagi o‘rni	
			2022-yil	2023-yil
1.	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti	Zamonaviy tillar		151—200
		Matematika	451 — 500	351—400
		Fizika va astronomiya		501—550
2.	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari” Milliy tadqiqot universiteti	Atrof muhit to‘g‘risidagi fanlar		351—400

O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari birinchi marta soha bo‘yicha reytingda ishtirok etishdi. “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari”

Milliy tadqiqot universiteti “Muhandislik va texnologiya” sohasi bo'yicha reytingda 451—500 - o'rin va “Tabiiy fanlar” bo'yicha 501—520 - o'rin egalladi.

2025-yilda nufuzli xalqaro QS Quacquarelli Symonds agentligi tomonidan dunyoning eng yaxshi universitetlarining fan sohalari bo'yicha reytingi — QS World University Rankings by Subject 2025 natijalari bo'yicha respublikaning 5 ta oliy ta'lim muassasasi 8 ta fan yo'nalishi bo'yicha Top—1000 universitetlar ro'yxatidan joy oldi. O'zbekiston uchun ushbu natija mamlakat tarixidagi eng yuqori natija bo'lib, o'tgan yilga nisbatan universitetlar soni 2 taga, yo'nalishlar soni esa 4 taga ortdi.

Reytingda qayd etilgan O'zbekiston universitetlari va yo'nalishlari:

T/r	Oliy ta'lim muassasasining nomi	Fan sohasi ("Subject")	Reytingdagi o'рни
			2023-yil
1.	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	Lingvistika	251—300
2.	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	Zamonaviy tillar	301—350
3.	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti (TDO'TAU)	Zamonaviy tillar	301—350
4.	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari" Milliy tadqiqot universiteti	Atrof-muhit to'g'risidagi fanlar	351—400
5.	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	Matematika	401—450
6.	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari" Milliy tadqiqot universiteti	Muhandislik va texnologiyalar	401—450
7.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Iqtisodiyot va ekonometriya	451—500
8.	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	Fizika va astronomiya	601—675

Tarmoq milliy malaka tizimini rivojlantirish maqsadida istiqbolli loyihalar amalga oshirish uchun tajribali mutaxassislar, ish beruvchilar va xususiy sektor jalb etilib, uslubiy qo'llanma va kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun ishchi guruhlar shakllantirildi hamda vazifalar belgilab berildi.

O'quv dasturlari va qo'llanmalar ko'rib chiqildi, malakalarni baholash tizimi joriy qilindi. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar aniqlanib, kasbiy standartlarni ishlab chiqish bo'yicha Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya tajribalari o'rganildi. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 100 ta kasb ro'yxati shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida dual ta'lim—ta'lim olish shakli sifatida belgilangan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-son qarori bilan kasbiy ta'limi tashkilotlarida dual ta'limni tashkil etish tartibi belgilandi.

Bundan tashqari, ish beruvchilar takliflari hamda mehnat bozori talablari asosida raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish

hamda o'quvchilarni dual ta'lim shaklida qabul qilishning yangi tartibi, ya'ni ish beruvchilar buyurtmasi asosida texnikumlarga o'quvchilarni qabul qilish Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrda 647-son qarori bilan tartibga solindi.

Ushbu tartib asosida, kasbiy ta'limda dual ta'lim shakliga xohish bildirgan talabgorlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi. Bunda, yil davomida (buyurtmalar shakllanishi bilan) texnikumlarda kasb va mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olishga ruxsat berildi.

Texnikumda dual ta'limda o'quvchilarni o'qitish korxona va tashkilotlarda kadrlar qo'nimsizligining oldi olinadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni dual ta'limda o'qishi bilan birga ish haqi olishi, ya'ni qo'shimcha daromadga ega bo'lishi, o'qish yakunida muvaffaqiyatli bitiruvchilar korxona va tashkilotlardagi bo'sh ish o'rinlarga ishga qabul qilish imkoniyati ortadi.

Texnikumlarda dual ta'lim shakli bo'yicha ish beruvchilarning o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan mavjud ehtiyoji asosida taqdim qilingan talabgorlar to'g'ridan-to'g'ri o'qishga qabul qilinadi.

Bugungi kunda, 418 ta texnikumda 7 677 ta tashkilot bilan hamkorlikda 134 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha 34,0 ming nafardan ortiq o'quvchi dual ta'limda o'qishni davom ettirmoqda. Mazkur o'quvchilarga korxona va tashkilotlardan 7 789 nafar "ustoz" birlashtirilgan.

Bundan tashqari, texnikumda xorijiy hamkorlar bilan qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Jumladan, Sirdaryo viloyati Shirin energetika texnikumida Saudiya Arabistonining "Acwa Power" kompaniyasi bilan 95 nafar, Qashqadaryo viloyatida Shahrisabz shahar 1-son politexnikumi (32 nafar) hamda G'uzor tuman 1-son politexnikumi (32 nafar) Germaniyaning "Avestos" kompaniyasi bilan jami 64 nafar o'quvchi xorijiy hamkor tashkilotlar standartlari bo'yicha o'qitilmoqda.

Dual ta'lim—ta'limni nazariy qismini texnikumda va amaliy qismi esa tanlangan mutaxassisligiga mos korxona va tashkilotda mehnat faoliyati bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi ta'lim shaklidir.

Ustoz ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini korxona va tashkilotlarda o'tkazish uchun o'quvchi(lar)ga birlashtirilgan mas'ul xodim.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy va kasbiy ta'lim tizimida amaliy mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratgan holda, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida YUNESKOning ta'lim bo'limi, shuningdek Albaniya, Estoniya va Germaniya kabi mamlakatlar bilan dual ta'lim tizimi hamda kasbiy ta'limni rivojlantirish yo'nalishida hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda. Jumladan, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, qurilish, muhandislik va iqtisodiyot sohalarida mutaxassislar tayyorlashning dolzarbligidan kelib chiqib, mazkur yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2024/2025 o'quv yili birinchi semestrda jami 103 ta davlat oliy ta'lim tashkilotlaridan 80 tasida o'quv reja bo'yicha talabalar amaliyoti rejalashtirilgan

bo'lib, 143 593 nafar talaba 2200 ga yaqin korxona va tashkilotlarda amaliyot o'tadilar.

Amaliyot tashkil etilgan oliy ta'lim tashkilotlarining 55 tasida 91 546 nafar talabalar dual ta'lim tizimi asosida amaliyot o'tagan. 31 ta oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar ham dual, ham an'anaviy tarzda amaliyot olib borishgan.

64 ta oliy ta'lim tashkilotida 52407 nafar talaba an'anaviy tarzda amaliyot olib borgan.

66 ta oliy ta'lim tashkilotidan amaliyotga chiqqan 14 781 nafari (amaliyotga chiqqan talabalarning 10% dan ortig'i) talaba amaliyot olib borayotgan korxona/tashkilotda amaliyotchi sifatida oylik maoshi bilan ta'minlangan.

2025/2026 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich dual ta'lim asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, shu jumladan, "Kasb egasi" dual ta'lim tizimi tashkil etish ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda dual ta'lim tizimi asosida kadrlar tayyorlash hajmi ikki barobar oshiriladi.

2025/2026 o'quv yiliga qadar muhandislik ishi, ishlab chiqarish, arxitektura va qurilish, axborot kommunikatsiyalar texnologiyalari va qishloq xo'jaligi sohalarida dual ta'lim tizimini tashkil etish maqsadida hududdagi oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar, korxonalar o'rtasida shartnomalar tuzilib, talabalar ushbu tashkilot korxonalarda ishga joylashishi ko'zda tutilgan.

Kasblar bozoridagi o'zgarishlar tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Globallashuv, sun'iy intellekt ta'sirida jarayonlarning tezlashuvi hamda o'zgarishlar natijasida mutaxassislarning bosqichma—bosqich murakkab va ijodiy ishlarda faoliyat ko'rsatishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Sun'iy intellektning rivojlanishi ko'plab kasblarga ta'sir ko'rsatishi natijasida tabiiyki, ayrim kasblarga talab ortib, ayrimlariga bo'lgan talab susayib, ayrim kasblarga ehtiyoj yo'qolib bormoqda.

Jumladan, ishlab chiqarish, savdo va yetkazib berish, logistikada avtomatlashtirilgan mashinalar odamlarning vazifalarini o'zlashtirish jarayoni jadal suratlar bilan rivojlanmoqda. Buxgalteriya, hisob-kitob jarayonlari, transportning o'z-o'zini boshqarish tizimlari hamda kasbiy hunarmandchilik, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishda sun'iy intellektning ta'siri sezilarli darajada bo'lishi bilan birga ayrim sohalarida katta o'zgarishlar va imkoniyatlar yaratmoqda.

Sun'iy intellektning rivojlanishi o'z navbatida onlayn ta'lim, elektron platforma, interaktiv materiallarni samarali tayyorlash, simulyatsion markazlarning paydo bo'lishi, virtual auditoriyalarning kengayishi jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga kasbiy ko'nikma va bilimlarni rivojlantirish uchun o'qituvchilarning o'z ustida ko'proq ishlashni talab etmoqda. Natijada ta'limdagi imkoniyatlar samaradorligi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini egallash va xalqaro dasturlarga integratsiya qilish imkoniyatini kengaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda 2022-yil 28-iyuldagi PQ-335-son "Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi

mashinasozligi klasterini tashkil etishni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-son "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga 2025/2026 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich dual ta'lim asosida o'qitishni joriy etish, shu jumladan "Kasb egasi" dual ta'lim tizimini tashkil etish hamda ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash hajmini ikki barobarga oshirish vazifasi yuklatildi.

2025/2026 o'quv yiliga qadar muhandislik ishi, ishlab chiqarish, arxitektura va qurilish, axborot kommunikatsiyalar texnologiyalari va qishloq xo'jaligi sohalarida dual ta'lim tizimini tashkil etish maqsadida hududdagi oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar, korxonalar o'rtasida shartnoma tuzilib, talabalar ushbu tashkilot korxonalarda ishga joylashishi ko'zda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-iyuldagi 421-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Bugungi kunda respublikamizning 59 ta oliy ta'lim muassasalarida 22 ta xorijiy mamlakatlarning 119 ta oliy ta'lim tashkilotlari bilan 375 ta qo'shma ta'lim dasturlari asosida o'quv jarayoni tashkil etilgan. Ushbu dasturlarda 10 ming nafardan ortiq (10 596 nafar) talabalar tahsil olmoqda. Ulardan 9725 nafari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, 871 nafari magistratura mutaxassisliklarida tahsil olmoqda.

2024/2025 o'quv yili qabuli uchun 51 ta davlat oliy ta'lim muassasalarining xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma ta'lim dasturlari ekspertizadan o'tkazildi va ijobiy ekspertiza xulosasiga ega bo'lgan 354 ta qo'shma ta'lim dasturlariga qabul kvotalari tasdiqlandi.

Ma'lumot uchun: jami kvotalar soni 9 210 tani tashkil etib, jumladan 226 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha 7 312 ta hamda 128 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha 1 898 tani tashkil etadi.

Shundan muhandislik sohasida 13 ta oliy ta'lim muassasasida 45 ta (26 ta bakalavriat 19 ta magistratura) qo'shma ta'lim dasturlari tashkil etilgan bo'lib 834 ta (610 ta bakalavriatga 214 ta magistraturaga) qabul kvotalari tasdiqlangan.

2025-yil holatiga ko'ra.

T/r	OTM nomi	Bakalavr	Magistr	Ordinatura	Jami
1.	"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti	3845	214		4059
2.	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti	12721	326		13047
3.	Al—Xorazmiy Universiteti	95			95
4.	Andijon davlat chet tillari instituti	4158	161		4319

5.	Andijon davlat pedagogika instituti	11778	484		12262
6.	Andijon davlat texnika instituti	9959	189		10148
7.	Andijon davlat tibbiyot instituti	11827	538	1350	13715
8.	Andijon davlat universiteti	12926	586		13512
9.	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	7357	125		7482
10.	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti	25956	1329		27285
11.	Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi		1452		1452
12.	Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti	512	49		561
13.	Buxoro davlat pedagogika instituti	11597	622		12219
14.	Buxoro davlat texnika universiteti	16210	462		16672
15.	Buxoro davlat tibbiyot instituti	9018	347	690	10055
16.	Buxoro davlat universiteti	18527	893		19420
17.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	19215	776		19991
18.	Cyber University of Uzbekistan	1082	15		1097
19.	Farg'ona davlat texnika universiteti	19382	390		19772
20.	Farg'ona davlat universiteti	25683	1079		26762
21.	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	5884	115	902	6901
22.	Farmatsevtika texnik universiteti	45			45
23.	Geologiya fanlari universiteti	2170	81		2251
24.	Guliston davlat pedagogika instituti	5648	307		5955
25.	Guliston davlat universiteti	14156	359		14515
26.	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	5189	372		5561
27.	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi Diplomatik akademiya		13		13
28.	Jamoat xavfsizligi universiteti	532	17		549
29.	Jismoniy Tarbiya va Sport Ilmiy Tadqiqotlar Institut		56		56
30.	Jizzax davlat pedagogika universiteti	15688	355		16043
31.	Jizzax politexnika instituti	8695	227		8922
32.	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	2442	138		2580
33.	Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti	3110	50		3160
34.	Markaziy Osiyo atrof—muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)	142	162		304
35.	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali	4881	92		4973
36.	Namangan davlat chet tillari instituti	3384	177		3561
37.	Namangan davlat pedagogika instituti	9005	618		9623
38.	Namangan davlat texnika universiteti	17379	458		17837
39.	Namangan davlat universiteti	14736	522		15258

40.	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	11019	289		11308
41.	Navoiy davlat universiteti	16993	695		17688
42.	Nukus davlat pedagogika instituti	13223	608		13831
43.	Nukus davlat texnika universiteti	6069	103		6172
44.	Oziq—ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti	1188	41		1229
45.	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	7730	132		7862
46.	O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali	247			247
47.	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi	580	19		599
48.	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali	161			161
49.	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali	1649			1649
50.	O'zbekiston Milliy universiteti	32154	2423		34577
51.	O'zbekiston Respublikasi Bank—moliya akademiyasi	960	1812		2772
52.	O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi	1106	390		1496
53.	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	22560	909		23469
54.	O'zbekiston davlat konservatoriyasi	1053	120		1173
55.	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti	4240	203		4443
56.	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali	1722	59		1781
57.	O'zbekiston davlat sport akademiyasi	145	19		164
58.	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	5874	385		6259
59.	O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	17789	1184		18973
60.	O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi	2376	273		2649
61.	Qarshi davlat texnika universiteti	22245	620		22865
62.	Qarshi davlat universiteti	13680	532		14212
63.	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti	915	49		964
64.	Qo'qon davlat universiteti	16782	609		17391
65.	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	3238	177		3415
66.	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti	2982	33	75	3090
67.	Qo'qon davlat pedagogika instituti	59	1		60
68.	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti	1709	82		1791
69.	Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti	8395	171		8566

70.	Samarqand davlat chet tillar instituti	11932	349		12281
71.	Samarqand davlat pedagogika instituti	10203	423		10626
72.	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	13968	384	1572	15924
73.	Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	7772	315		8087
74.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	5508	123		5631
75.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali	957	70		1027
76.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali	2625	55		2680
77.	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	8947	125		9072
78.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	9153	366		9519
79.	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti	14933	899		15832
80.	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali	1943			1943
81.	Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti	23	7		30
82.	Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti	10022	183		10205
83.	Termiz davlat pedagogika instituti	10552	490		11042
84.	Termiz davlat universiteti	16901	674		17575
85.	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	8919	398		9317
86.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	14834	368		15202
87.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali	2			2
